XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 20-iyun VI-93-73-7-104-K/24 Toyloq tumani

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Samarqand viloyati Toyloq tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-85-155-7-104-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining2024-yil 21-fevraldagi 03/35-6-4041-sonli ko‘rsatma xati, Samarqand viloyati hokimining 2024-yil 22-fevraldagi 49-7-0-Q/24-sonli qarori va tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Sharipovning 2024-yil 27-maydagi 01/01/364-sonli bildirgisiga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining to‘qson uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish va suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini kengaytirilgan tartibda joriy etishni davom ettirish hamda “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida, xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Samarqand viloyati Toyloq tumanining2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-85-155-7-104-K/23-sonli qarorining 1-ilovasi 11-bandi,

mahalliy budjet daromadlari (suv solig‘ining prognoz qilingan so‘mmasi) va 2-ilovasi 7-bandi xarajatlari (Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasining saqlash xarajatlari) 40 foizga teng miqdorlarda oshirilsin.

3. Quyidagilar:

xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Samarqand viloyati Toyloq tumanining2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-85-155-7-104-K/23-sonli” qarorining 1-ilovasi 11-bandi “Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq” va jami daromadlar turi1-ilovaga muvofiq;

xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Samarqand viloyati Toyloq tumanining2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-85-155-7-104-K/23-sonli qarorining 2-ilovasi 7-bandi “Tuman irrigatsiya bo‘limi” va jami xarajatlar miqdoriga 2-ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi VI-85-155-7-104-K/23-sonli qarorning qolgan bandlari o‘z kuchida va o‘zgarishsiz qoldirilsin.

5. Toyloq tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Sharipov), Toyloq tumani irrigatsiya bo‘limi (B.Axadov), tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (B.Kubayev) bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi korxonalarining suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovidan tuman mahalliy budjetiga haqiqatda kelib tushgan mablag‘larni 40 foizini har oy yakuni bo‘yicha belgilangan muddatda “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasining budjetdan tashqari g‘azna hisob varag‘iga o‘tkazib borilishini ta’minlasinlar.

6. Toyloq tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Sharipov), Toyloq tumani irrigatsiya bo‘limi (B.Axadov) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom asosida ishlarni olib borsin.

7. Toyloq tuman soliq inspeksiyasi (Z.Sindorov), Toyloq tumani irrigatsiya bo‘limi (B.Axadov) va tuman hokimligi bilan birgalikda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalanilgan suv hajmi, shu jumladan, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovlarini belgilangan muddatlarda undirish choralarini ko‘rsinlar.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xujamurodov) zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



YULDASHOVA
MUTABAR
ABDUMANONOVNA

Xalq deputatlari Toyloq tumani
Kengashining
2024-yil 20-iyundagi
VI-93-73-7-104-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Toyloq tumanining tuman budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		121 622 500,0
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	11 635 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	36 416 000,0
3	Aksiz solig‘i, jami	9 378 000,0
	shu jumladan:	
	- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*9 378 000,0*
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 645 000,0
5	Yuridik shaxslar yer solig‘i	7 635 500,0
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	12 463 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	22 300 000,0
8	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 080 000,0
9	Korxonalar aylanmasidan soliq	12 900 000,0
10	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	130 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 990 000,0
12	Yig‘imlar	1 050 000,0

Xalq deputatlari Toyloq tumani
Kengashining
2024-yil 20-iyundagi
VI-93-73-7-104-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Toyloq tumanining tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

T/R	**Xarajatlar miqdori, Jami**	**203 107 209,0**
	shu jumladan:	
1	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	28 040 687,0
2	Tuman tibbiyot birlashmasi	90 902 424,0
3	Tuman soliq inspeksiyasi	4 916 067,0
4	Tuman madaniyat bo‘limi	6 936 058,0
5	Tuman yoshlar siyosati va sport bo‘limi	12 895 812,0
6	Tuman qishloq xo‘jaligi sohasi	2 580 000,0
7	Toyloq tumani Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi	1 596 000,0
8	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	4 720 548,0
9	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 518 122,0
10	Tuman hokimligi	49 001 491,0